

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

maktablari, xorijiy ta’lim dasturlari, milliy qadriyatlarning targ’iboti va hunarmandchilikni rivojlantirish loyihalari jadidlar orzularining ro’yobga chiqishidir. Ushbu merosni chuqur anglash va amaliyotda ado etish orqali O‘zbekiston global maydonda munosib o‘rin egallaydi. Maqola o‘quvchilarni jadidlar vasiyatlarini hayotga tatbiq etishga va milliy taraqqiyotga hissa qo‘shishga undaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Behbudiy, M. (2006). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
2. Behbudiy, M. (1909). *Padarkush*. Toshkent: Jadidlar nashriyoti.
3. Xudoyberdiyev, Q. (2020). *Jadidlar va ularning merosi*. Toshkent: Akademnashr.
4. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). *Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishidagi nutq*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.
5. Internet manbasi: [www.president.uz/oz/lists/view/6941](http://www.president.uz/oz/lists/view/6941) – Prezidentning rasmiy sayti.
6. Internet manbasi: [www.gazeta.uz/oz/2023/12/22/jadids](http://www.gazeta.uz/oz/2023/12/22/jadids) – O‘zbekiston yangiliklari.
7. Internet manbasi: [www.jadidlar.uz](http://www.jadidlar.uz) – Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidlar arxivi.
8. Internet manbasi: [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) – O‘zbek adabiyoti va tarixi arxivi.
9. Maqola: “Behbudiy vasiyatnomasining ma’naviy ahamiyati” (2022). [www.jadidlar.uz](http://www.jadidlar.uz).

### **A.QODIRIY VA J. ZAYDON ASARLARIDAGI TASVIR O‘XSHASHLIKLARI.**

#### **Teshayeva Fotima Sherbek qizi**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabasi*

**Email:** [fotimteshayeva2002@gmail.com](mailto:fotimteshayeva2002@gmail.com), +998883011828

**Annotatsiya:** *Ushbu tadqiqot ishida o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy hamda arab tarixiy romanchilik an’anasining yetuk vakili hisoblangan Jo‘rji Zaydon asarlaridagi badiiy tasvirlarning o‘xshashligi tahlil qilingan. Maqolada Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” va Jo‘rji Zaydonning “Farg‘ona kelini” romanlari misolida makon, shaxs obrazlari shuningdek maktub orqali ifodalangan adabiy tasvir vositalari qiyoslangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Zaydon ijodi Qodiriyning badiiy tafakkuriga katta ta’sir ko‘rsatgan va bu ikki roman o‘rtasida adabiy o‘xshashliklar mavjud. Mazkur maqola o‘zbek va arab tarixiy romanlaridagi badiiy tafakkur uyg‘unligini ochib beradi.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘tgan kunlar, tasvirlash, roman, qiyosiy, Farg‘ona kelini, tahlil, obraz tasviri, joy tasviri*

### **KIRISH**

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

Abdulla Qodiriy nafaqat o‘zbek romanchiligining asoschisi, balki Sharq va G‘arb adabiy merosidan ta’sirlangan, keng dunyoqarashga ega ijodkor sifatida dunyoga tanilgan. Taniqli sharqshunos olim Yevgeniy Edvardovich Bertelsning fikricha o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriydir. Bertels jahonda 5 ta; fransuz, rus, ingliz, nemis va hind romanchilik maktablari bor ekanligini oltinchisi ya’ni o‘zbek romanchilik maktabini Abdulla Qodiriy yaratganini aytib o‘tadi. Manbaalarda “O‘tkan kunlar” romani, o‘zbek adabiyotidagi birinchi roman ekanligi ta’kidlanadi. Abdulla Qodiriyning so‘zlariga qaraganda uni roman yozishga havaslantirgan ustoz sifatida Jo‘rji Zaydonni tilga oladi. Jo‘rji Zaydon arab romanchiligiga asos solganligi haqida ma’lumotlar bor. Uning 22 ta tarixiy romanlari mavjud. Tarixiy roman janrida yozilgan “O‘tkan kunlar” va “Farg‘ona kelini” asarlarida nafaqat voqealarning tarixiy mazmuni, balki badiiy tasvirlar, obrazlar, makon ifodasi va ichki dramatism orqali bir-biriga yaqinlashadi. “O‘tkan kunlar” dek romanni yaratish uchun yozuvchida muayyan tayyorgarlik, katta adabiy bilim bo‘lishi zarur. Abdulla Qodiriy yoshlik davrlaridayoq Sharq va G‘arb madaniyati, adabiyoti namunalari bilan tanishib chiqqan. Rus-tezum maktabida rus tilini o‘rgangan, madrasalarda ta’lim olib arab, fors tillarini adabiyotlarini o‘zlashtirdi, tatarlar va boshqa qardosh turkiy tillarda chiqib turgan teatr va yangi turdagi nasr namunalari bilan tanishib chiqadi. Turk milliy adabiyotining o‘sha davrdagi mashhur nosirlari - Yoqub Qodiriy, Rafiqiy, Ravshan Ashraf, Yahyo Kamol uning sevimli yozuvchilaridan edi. Jo‘rji Zaydon romanlarini sevib o‘qigan. Abdulla Qodiriy J.Zaydonni o‘zini roman yozishga havaslantirgan ustoz deb “Sharq haqiqati”ning 1929-yil 218-sonida “O‘tkan kunlar” ham “O‘tkan kunlar”tanqidi ustida ba’zi izohlari”nomli maqolasida aytib o‘tadi. Maqolada Jo‘rji Zaydon haqida shunday deydi: “...meni ro‘mon yozishga havaslantirgan Misr fuzalosi ustoz Jo‘rji Zaydon...”. Habibulla Qodiriyning “Otam haqida: Xotiralar” kitobida ham yuqoridagi ma’lumotlar o‘z tasdig‘ini topgan. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Abdulla Qodiriy J.Zaydon asarlari bilan yaxshi tanish bo‘lganligi va uni ustoz sifatida bilganligi sababli ham Abdulla Qodiriy va J.Zaydondagi ba’zi tasvir o‘xshashliklarini uchratishimiz tabiiy holdir. J.Zaydonning “Farg‘ona kelini” romanini o‘zbek tiliga Shoikrom Shoislomov tomonidan tarjima qilingan. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, u ikki millat adabiyotidagi tarixiy tafakkur va badiiy ifoda usullarining mushtarak jihatlarini yoritadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – A. Qodiriy va J. Zaydon romanlarida ishlatilgan tasvir usullarini qiyosiy tahlil qilish, ularning badiiy tafakkuridagi umumiylik va adabiy ta’sir doiralarini aniqlashdan iborat

### **METODLAR**

Ushbu tadqiqotda asosan adabiy qiyoslash, germeneytik tahlil va manbalarni tahlil qilish kabi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Har bir metodning mazmuni va tadqiqotdagi o‘rni quyidagicha ifodalanadi: Qiyosiy-tahliliy usul. Bu usul tadqiqotning asosiy yondashuvlaridan biri bo‘lib, ikki muallif – Abdulla Qodiriy va Jo‘rji Zaydon romanlaridagi tasviriy komponentlar – joy, obraz (shaxs), maktub kabi badiiy elementlarni o‘zaro solishtirish va o‘xshashlik hamda tafovutlarni aniqlash orqali amalga oshirildi. Masalan, “O‘tkan kunlar” romanidagi

## “BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Kumushbibining tasviri bilan "Farg'ona kelini"dagi Jahon obrazining betimlari o'zaro qiyoslandi. Shuningdek, ikki asarda makon (masalan, hujralar yoki ibodat joylari) tasvirlarida ishlatilgan badiiy vositalarning o'xshashligi aniqlanib, ular qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Germenevtik metod – matnni chuqur anglash va izohlashga yo'naltirilgan adabiy-tahliliy yondashuv bo'lib, bu tadqiqotda mualliflarning estetik qarashlari, maqsadi va ijtimoiy-axloqiy pozitsiyasini tahlil qilishda qo'llanildi. Asarlar orasidagi ichki ma'no uyg'unligi, madaniy kontekst, davr ruhi va yozuvchilarning tarixga munosabati sharhlandi. Masalan, Qodiriy o'z romanida tarixiy voqealarni realizm ruhida ifodalagan bo'lsa, Zaydon esa arab dunyosining tarixiy qahramonlarini romantik ruhda jonlantirgan. Bu yondashuvlar orqali yozuvchilarning adabiy-ideologik yo'nalishlari aniqlashtirildi.

Manba tahlili. Ushbu usul doirasida A.Qodiriy va J.Zaydon ijodiga oid asosiy matnlar, ilmiy tadqiqotlar, xotiralar, mualliflarning o'z izohlari va o'rganilgan maqolalar tahlil qilindi. Xususan, Qodiriy tomonidan 1929-yilda "Sharq haqiqati" gazetasi orqali e'lon qilingan "O'tkan kunlar tanqidi ustida ba'zi izohlar" nomli maqolasida Jo'rji Zaydonni "meni roman yozishga havaslantirgan ustoz" deb tilga olgan joyi asosiy manba sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, Habibulla Qodiriyning "Otam haqida" xotiralari, XX asr o'zbek adabiyoti tarixiga oid darsliklar, Bertels va boshqa tadqiqotchilar qarashlari manba sifatida xizmat qildi.

Ushbu metodlar uyg'unligi orqali Qodiriy va Zaydon ijodidagi tasviriy san'atning adabiy-estetik ildizlari va madaniy bog'liqligi ochib berildi. Shu bilan birga, qiyosiy tahlillar orqali har ikki yozuvchining tarixiy roman yaratishdagi badiiy mahorati chuqur yoritib berildi.

### **NATIJALAR**

Quyidagi asosiy o'xshashliklar aniqlandi:

| <b>“Farg’ona kelini”</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | <b>“O‘tkan kunlar”</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>Makon tasviri:</b>.. Savlati zo‘r bino. Shahardagi boshqa binolarga qiyos qilinsa gullar o‘rtasidagi baland xurmo daraxtiga o‘xshab ko‘rinadi. Uning tepasidagi shamolda hilpirab turgan yashil bayroqlar toza ipakdan bo‘lib har birining uzunligi o‘n gazcha keladi.....</p> <p><i>(Jahon-Farg’ona kelini bobidan majusiylar topinadigan katta bino haqida asar muqaddima qismida keltirilgan ta’rif.)</i></p> <p><b>Shaxs tasviri:</b> ...Jahon uzun bo‘yli</p> | <p><b>Makon tasviri:</b>...Saroyning to‘rida boshqalarg‘a qarag‘anda ko‘rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kigiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo‘z ko‘rpalar bo‘lsa , bunda ipak va adras ko‘rpalar.....</p> <p><i>(Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li bobidan karvonsaroydagi Otabekning hujrasi tarifi asar muqaddima qismida keltirilgan.)</i></p> <p><b>Shaxs tasviri:</b>....Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig‘a</p> |

## “BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>, barvasta bo‘lib chehrasida salobat, sog‘lomlik va husn barq urib turardi. Uning shahlo ko‘zlari shunaqangi boqardiki seyr-jodu bundan ortiq bo‘lmas.....</p> <p><i>(Jahon-Farg‘ona kelini bobidan Jahonning tasviri berilgan.)</i></p> <p>..... o‘ttiz yoshlar chamasidagi xushbichim, xushfel, o‘rta bo‘yli, to‘ladan kelgan yelkalari va manglayi keng kulcha yuzli.....</p> <p><i>(Zirg‘om bilan Jahon bobidan Zirg‘omning tasviri berib o‘tilgan.)</i></p> <p><b>“Zirg‘omning maktubi”</b> bobi bor<br/><i>(ushbu bobda Zirg‘omning Jahonga maktubi berilgan.)</i></p> | <p>tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jinggala kiprak ostidag‘i tim qora ko‘zlari.....</p> <p><i>(Bek oshiq bobidan Kumushbibining tasviri berilgan.)</i></p> <p>.....o‘ttiz besh yoshlar chamaliq go‘zal, xushbichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to‘g‘rilik ma‘nolari tomib turg‘an....</p> <p><i>(Kiroyi kuyoving shundog‘ bo‘lsa bobidan Oftob oyim tasviri berib o‘tilgan.)</i></p> <p><b>“Maktub”</b> bobi bor<br/><i>(ushbu bobda Kumushbibining Otabekka maktubi berilgan.)</i></p> |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

### **MUHOKAMA**

Adabiy ijodda tasvir vositalari nafaqat voqealarni ifodalash, balki muallif dunyoqarashini, g‘oyaviy-estetik maqsadini ochib berish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. A.Qodiriy va J.Zaydon ijodini qiyoslash orqali ikki xalq — o‘zbek va arab milliy adabiyotlarining badiiy tafakkurida mavjud o‘xshashliklar, ayniqsa tarixiy roman janridagi ifoda usullari aniqlanishi mumkin. Tadqiqot davomida ikki muallif asarlaridagi badiiy tasvir — makon, obraz va epistolyar (maktub) vositalarning muhim o‘ringa ega ekanligi aniqlandi. Avvalo, makon tasviri — ikki yozuvchi uchun ham muhim estetik va semantik yuklamaga ega. Zaydon “Farg‘ona kelini” romanida diniy ibodat joyi yoki shaharning muhim binosini tasvirlar ekan, uni bayroqlar hilpiragan baland xurmo daraxti bilan qiyoslaydi. Bu metaforik ifoda orqali makonning ruhiy-ta’sirchanligini oshiradi. Xuddi shunday, Qodiriy ham “O‘tkan kunlar”da karvonsaroy yoki uy tasvirida gilamlar, to‘shamalar, adras ko‘rpalar orqali milliy ruh, obodlik va qulaylik tasavvurini yaratadi. Har ikkisi ham makon vositasida muayyan ijtimoiy qatlam, ruhiy holat va zamon

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

ruhini ifodalagan. Shaxs obrazlari tasviri jihatidan ham o‘xshashliklar kuzatiladi. Zaydon yaratgan Jahon obrazi – uzun bo‘yli, shahlo ko‘zli, salobatli qahramon. Qodiriy esa Kumushbibini obrazini qora kiprikli, tim qora ko‘zli, muloyim yuzli va go‘zal qilib tasvirlaydi. Har ikkala yozuvchi ham ayol obrazini nafaqat tashqi go‘zallik, balki ichki iffat, itoat, sadoqat timsoli sifatida taqdim etadi. Bu orqali ular jamiyatdagi ayolning axloqiy va ma‘naviy o‘rnini badiiy ifoda vositasida ko‘rsatgan. Muhokamaning yana bir muhim nuqtasi – maktub janridan foydalanishdir. Har ikki roman epistoliar unsurlardan foydalangan. Zaydon asarida Zirg‘omning Jahonga yozgan maktubi, Qodiriyda esa Kumushbibining Otabekka yozgan maktubi — bu voqealarning nafaqat dramatik chizig‘ini boyitgan, balki obrazlar ruhiy holatini ochishga xizmat qilgan. Maktublar orqali o‘quvchi qahramonning ichki olami, kechinmalari, sevgisi va sadoqatini bevosita anglaydi. Shuni ham alohida ta‘kidlash kerakki, Qodiriy va Zaydon romanlaridagi tasvirlar adabiy va ijtimoiy g‘oyalar bilan bevosita bog‘liq. Har ikki yozuvchi tarixiy roman orqali o‘z xalqining tarixini, o‘tmishdagi ijtimoiy muammolarni, madaniyatini badiiy til orqali anglatgan. Zaydon asarlarida arab tarixining iftixorli davrlari, qadriyatlarini targ‘ib qilinsa, Qodiriy o‘zbek xalqining XIX asrdagi hayot tarzi, urf-odatlarini, ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurash motivlarini ilgari suradi. Ushbu badiiy o‘xshashliklar tasodifiy emas. A.Qodiriyning o‘zi Jo‘rji Zaydonni ustoz deb tan olgan. Uning asarlarini yoshligida o‘qigan, ilhom olgan, va natijada, milliy ruhda, lekin Zaydoncha tarixiy tafakkurda o‘z romanini yaratgan. Shu bois, badiiy tafakkur jihatidan Qodiriy Zaydon ijodining mintaqaviy ta‘sir doirasida shakllanganini aytish mumkin. Yana bir muhim jihat shuki, bu o‘xshashliklar ikki yozuvchining tarixga bo‘lgan munosabatida ham ko‘zga tashlanadi. Ikkisi ham tarixni quruq voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki inson taqdiri orqali hikoya qiladi. Bu esa ularni badiiy tafakkurda yanada yaqinlashtiradi.

### **XULOSA**

Abdulla Qodiriy va Jo‘rji Zaydon romanlarida uchraydigan tasviriy o‘xshashliklar ikki adib ijodidagi badiiy tafakkurning estetik uyg‘unligini ko‘rsatadi. Qodiriy o‘z ijodining dastlabki bosqichidayoq Zaydon romanlaridan ilhom olganini ochiq e‘tirof etgan, bu esa ularning adabiy yondashuvlari va g‘oyaviy qarashlari orasida yaqinlik borligini isbotlaydi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, tasvirning uch asosiy komponenti – makon, obraz va epistoliar ifoda vositalari har ikki yozuvchining romanlarida o‘ziga xos uslubda, ammo o‘zaro qiyoslanadigan darajada badiiy mujassamlangan. Zaydon romanlaridagi sahnalar asosan romantik-uslubda, keng ko‘lamli tarixiy manzaralar orqali berilgan bo‘lsa, Qodiriy asarlarida realizm va mahalliy milliy tafakkur ustuvor o‘rin tutadi. Shunga qaramay, ikkalasi ham joy tasviri orqali o‘quvchiga voqealar muhiti haqida teran taassurot uyg‘otadi; ayol obrazlari orqali axloqiy poklik, go‘zallik va sadoqat timsollarini yaratadi; maktublar orqali esa ichki ruhiy kechinmalarni ifoda etadi. Bu jihatlar ularning romanlarini bir-biriga estetik va struktura jihatidan yaqinlashtiradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, A.Qodiriy Zaydon asarlaridagi badiiy konstruksiyalarni o‘zlashtiribgina qolmay, ularni o‘z xalqining tarixiy, ijtimoiy, madaniy kontekstiga moslashtira

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

olgan. Bu o‘zlashtirish ko‘r-ko‘rona taqlid emas, balki ijodiy va mustaqil tarzda yo‘naltirilgan badiiy yondashuv natijasi bo‘lib, Qodiriyning o‘zbek romanchiligidagi beqiyos o‘rnini mustahkamlab bergan. Shuningdek, mazkur qiyosiy tahlil natijalari orqali o‘zbek va arab adabiyotlarining tarixiy roman janridagi rivojlanishida madaniy ta’sirlar, adabiy aloqalar va estetik o‘zaro bog‘liqliklar mavjudligi isbotlandi. Bu esa nafaqat adabiyotshunoslik uchun, balki madaniyatlararo tadqiqotlar va Sharq romanchiligini kompleks tahlil qilish uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Иноғомов Р. Қодирий жаҳон кезади. Шарқ юлдузи. 1994. №3-4.
2. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар: Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар / Абдурауф Фитрат; Масъул муҳаррир Б. Қосимов; Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев. — Т.: «Маънавият», 2009. — 336 б.
3. Норматов, Умарали Қодирий муъжизаси: Тадқиқот, кайд, суҳбат ва мулоҳазалар/У. Норматов; масъул муҳаррир ва сунгсуз муаллифи Б. Каримов. — Т.: «О‘zbekiston» 2010. - 272-б.
4. Қодирий, Ҳабибулла. Отам ҳақида: Хотиралар. Тўлдирилган 2-нашри. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.-224 б.
5. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур: илмий монография / Б.Карим. - Тошкент: Академнашр, 2014. - 256 б.
6. XX аср ўзбек адабиёти тарихи: Ун-тлар ва пед. ин-тлари бакалавр ихтисосини олувчилар учун дарслик /Н. Каримов, С. Мамажонов, Б. Назаров ва бошқ/ Т.: Ўқитувчи, 1999.- 544 б.
7. Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар: роман. Абдулла Қодирий. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.
8. Зайдон Жўржий. Фарғона келини [Матн]: Роман/ Ж.Зайдон; Араб тилидан Шоикром Шоисломов таржимаси. — Т.: Донишманд зиёси нашриёти, 2021. - 320 б.

### **BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

**Umurova Ruxshona Isomiddin qizi**  
*Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich  
ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda ona tili darslarining o‘rni, bu jarayonda qo‘llaniladigan samarali metodlar, shuningdek, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish yo‘llari yoritilgan. Metodik tavsiyalar*